ALLYUZIV BIRLIKLAR YUZGA KELISHIDA METAFORIK VA METONIMIK KO‘CHIMLARNING AHAMIYATI

Karimova Mastura Ablaxat qizi

O‘zMU O‘zbek tilshunosligi

kafedrasi o‘qituvchisi

m.karimova94@nuu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada allyuziv ma’nolarning shakllanishida assotsiativ qayta nomlashning ikki asosi metaforik va metonimik ko‘chimlarning kognitiv hamda lingvopoetik tabiati qiyosiy tadqiq etilgan. Metaforaning ikki xil mental makonning ustma-ust tushishi, metonimiyani esa bitta mental makon ichidagi referensiya funksiyasi bir element orqali butun makonni aktuallashtirish sifatida asoslangan.

Abstract. This article provides a comparative study of the cognitive and linguopoetic nature of metaphorical and metonymic transfers, which serve as the two primary foundations of associative renaming in the formation of allusive meanings. The study establishes metaphor as the overlapping of two distinct mental spaces, whereas metonimy is substantiated as a referential function operating within a single mental space, wherein a single element activates the entire domain.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительное исследование когнитивной и лингвопоэтической природы метафорического и метонимического переносов, выступающих в качестве двух основных опор ассоциативного переименования при формировании аллюзивных значений. Метафора обосновывается как наложение двух различных ментальных пространств, в то время как метонимия трактуется как референциальная

функция внутри одного ментального пространства, реализующая актуализацию всего пространства через один его элемент.

Kalit so‘zlar: *allyuziv ma’no, assotsiativ qayta nomlash, metafora, metonimiya, mental makon, referensiya funksiyasi, konseptual metafora, lirik qahramon, kognitiv tezaurus, intellektual portret.*

Allyuziv ma’nolar hosil bo‘lishining asosiy sxemasi metaforik va metonimik ko‘chimlar asosida shakllangan assotsiativ aloqalardir. Ma’lumki, metaforaning yaratilishi inson ongining bir mental konseptni boshqasiga ko‘chirish qobiliyatiga asoslanadi. Uning ma’nosi ikki komponent - ifodalanmish va tasviriy vositaning o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi. Metaforaning ifodalovchisi so‘zlovchining obyekt haqidagi tasavvuri va kommunikativ niyatiga qarab uning yo‘nalishini belgilaydi; yordamchi obyekt o‘zi ifodalayotgan til tushunchasiga qarab bir qator mumkin bo‘lgan obyektlar orasidan tanlanadi va so‘zlovchining obyektning ma’lum bir qirrasini belgilash niyatiga mos keladi.

Metafora uch a’zoli tuzilma bo‘lib, manba so‘z, natijaviy so‘z va oraliq tushunchadan iborat. V.N.Teliya[1] metaforaga ushbu mavzuda allaqachon mavjud bo‘lgan belgilardan foydalangan holda yangi tushunchalarni yaratish usuli sifatida ta’rif beradi. Tilshunoslikda Obrazli (kognitiv) va konseptual metaforalar bir-biridan farqlanadi. Obrazli (kognitiv) metaforalar deganda yozuvchi va shoirlar tomonidan ma’lum bir fikrni ifodali va nafis ifodalash uchun sun’iy va mohirona yaratilgan, ritorika qoidalariga amal qiladigan yoki ataylab buzadigan o‘ziga xos uslubiy usullar tushuniladi. Kognitiv (obrazli) metaforalar- shaxs kognitiv faoliyatiga xos hodisa bo‘lib, bir tushuncha yoki hukm haqidagi bilim trukturalari asosida ikkinchi tushuncha yoki hukmni kategoriyalashtirishdir[2].

Konseptual metaforalar deganda, ma’lum bir tilda so‘zlashuvchilarning kundalik turmush tarziga aylangan avtomatik, ongsiz obrazlar, oson qabul

qilinadigan va ongsiz ravishda tahlil qilinadigan, ma’lum bir kategoriyalar tizimidagi an’anaviy, barqaror elementlar tushuniladi.

She’riy matnlarda o‘xshatish elementi deyarli sezilmay metaforik shaklga kelgan holda ham qo‘llaniladi. Masalan,

Yoshlik - ishqu oshiqlik mayli,

O‘zi Majnun, ham o‘zi Layli,

Subhi olam uning tufayli.

Mayli, unga bitmasam mayli

Bu yerda *“O‘zi Majnun, ham o‘zi Layli”* III shaxsga qaratilgan metaforik allyuziya hisoblanib, muallif yoshlikni bir vaqtning o‘zida ham oshiq, ham ma’shuqa sifatida tasvirlaydi. Bu orqali yoshlikning ikki qirrasi his-tuyg‘ularning to‘lqinsimonligi va ziddiyatliligi ifodalanadi. Matn muallifi tezaurusida *“yoshlik-sevish, sevilish vaqti”* shaklidagi kognitiv metafora mavjud bo‘lib, Majnun va Layli badiiy allyuziv birliklari orqali ifodalangan.

Assotsiativ qayta nomlashning ikkinchi turi metonimiya bo‘lib, unda nolisoniy voqelik obyektlarining ekstralingvistik xususiyatlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan assotsiatsiyalar ular o‘rtasidagi munosabatlarning muayyan turlarini aks ettiradi. Metaforada proyeksiya ikki obraz-sxema o‘rtasida, metonimiyada esa bir obraz-sxema ichida proyeksiyalanadi. Metafora – ikki mental makonning ustma-ust tushishi[3]. Metonimiya – bitta mental makonning bir qismini aktuallashtirish. Metaforada bir struktura ikkinchi struktura ustiga qo‘yiladi va makon-manba mantiqiy aloqalari makon-maqsad mantiqiy aloqalariga ko‘chiriladi. Metonimiyada referensiya funksiyasi amalga oshiriladi: metonimiya yordamida o‘sha strukturaning biror elementi bilan aloqa o‘rnatish mumkin; strukturaning bir

elementi o‘sha strukturaning boshqa bir elementiga yoki butun mental makonga mos keladi.

Seni visol bog‘larida kutmagan.

Kechalaring osudadir, bir odam –

Yodi bilan band bo‘lmagan o‘ylaring...

“Yosh Verter”*ni o‘qib bir kun meni ham [E.Vohidov. Tanlangan asarlar: 12].*

Berilgan matnda I.V.Gyotening *“Yosh Verterning iztiroblari”* asariga qilingan ishora metonimik shaklda ya’ni bosh qahramon Yosh Verterning nomi orqali ifodalangan. Bunda asarining nomi muayyan ruhiy holatidagi baxtsiz sevgi, umidsizlik va ishq yo‘lidagi fojia tushunchalarini metonimik shakl orqali namoyon qilgan. Bu esa o‘quvchiga qahramonning naqadar nozik tabiatli, madaniyatli va g‘arb adabiyoti durdonalaridan xabardor shaxs ekanligini ko‘rsatadi.

Matnlarning kognitiv va lingvopoetik tahlili shuni ko‘rsatadiki, allyuziv ma’nolarning hosil bo‘lishi inson ongining murakkab assotsiativ faoliyati mahsuli bo‘lib, unda metafora va metonimiya mutlaqo farqli kognitiv mexanizmlar orqali namoyon bo‘ladi. *Metafora* ikki mustaqil mental makonning ustma-ust tushishi va yangi konseptual tushunchalarni tizimlashtirish vazifasini bajarsa, *metonimiya* bitta mental makon ichidagi referensiya funksiyasini faollashtirib, bitta element orqali butun boshli emotsional, psixologik holat va lirik qahramonning intellektual dunyosini aks ettiradi. Umumlashtirib aytganda, ijodkor tezaurusidagi ushbu assotsiativ qayta nomlash asoslari badiiy matnda muallifning kommunikativ niyatini eng qisqa, ta’sirchan usulda tinglovchiga yetkazuvchi va dunyoni kategoriyalashtiruvchi universal kognitiv vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dronova E.M. Problems of translation of the stylistic device of allusion in Anglo-Irish literature of the first half of the twentieth century. Bulletin of VSU, 2004. – P. 26-30.

2. Телия В. Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. - М.: Наука, 1986. – 26 с.

3. Худойберганова Д. Бадиий матннинг антропоцентрик тадқиқи. Филол. фан…док (DSc) дисс. – Т., 2010. – Б. 48-49.

4. Кравченко А.В. Библейские аллюзии в англоязычной публицистике и их лингвостилистическая оценка. Функциональная стилистика и лингводидактика. – М., 1988. – С. 17-23.

5. Хомидова М. Бадиий матн перцепциясида интертекстуаллик: филол. фан. докт...дисс. – Т.: Фан. 2021. – Б. 37.

6. Mamajonov M. Allyuziv antroponimlar va ularning badiiy matnda qo‘llanilishi. – T.: Fan va texnologiyalar. 2020. – B. 30.

7. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоетик тадқиқи: филол. фан. докт...дисс. – Т., 2010. – Б. 126-150.

[1] Телия В. Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. - М.: Наука, 1986. - 135 с.

[2] Худойберганова Д. Бадиий матннинг антропоцентрик тадқиқи. Филол. фан…док (DSc) дисс. – Т., 2010. – Б. 48-49.

[3] Телия В. Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. - М.: Наука, 1986. – 26 с.